

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

“TASDIQLAYMAN”

TDIU Samarqand filiali direktori,

prof. O. Murtazayev

“_____” 2025-yil



08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit”

ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni

DASTURI

SAMARQAND – 2025

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining 2025-yil
“ ” dagi -sonli Kengashida muqokama qilingan va tasdiqlangan

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya
hisobi va statistika” kafedrasining 2025-yil “ ” dagi - sonli majlisida
muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

M.Mardonov

Tuzuvchilar:

i.f.f.d. (PhD), M.Mardonov
i.f.f.d. (PhD), dots. Z.Abdullayev

Taqrizchilar:

SamISI “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrası professori, i.f.d. K.B.Urazov
SamDVMChBU “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, i.f.d.
A.I.Alikulov

KIRISH

Kadrlar tayyorlash to'g'risidagi milliy dasturning, O'zbekiston Respublikasining 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 46-49 maqsadlarni amalga oshirish, shuningdek 50-maqsad: “...eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktorturarda ta'lim olish uchun ochiq saralash tanlovlarini o'tkazish”ni amalga oshirilishi iqtisod sohasini chuqur biluvchi kadrlar tayyorlash zarurligini taqozo qiladi.

“Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligining mutaxassislik fanlari majmuasi bo'yicha tayanch doktorturaga kirish imtihonlari uchun tayyorlangan ushbu dastur ham talabgorlarga buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit fanlarining mazmunini ochib beruvchi asosiy savollar tarkibidan iborat. Ushbu dastur bugungi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit sohasini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini ochib beradigan buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit sohalariga oid savollar to'plami bilan birgalikda, ularga javoblar bo'yicha manbalarni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu dasturda keltirilgan mavzu va masalalar buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit sohasidagi nazariy va amaliy qarashlarning hozirgi holatidanva chet el tajribasi asosidagi zamonaviy amaliyotidan kelib chiqadi.

Dasturda qo'yilgan mavzular 08.00.08 - “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgorlarning faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki shu sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo'yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab qiladi.

Mazkur masalalar bo'yicha nazariy muammolar iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)ga talabgorlarning shaxsiy qarashlarini shakllanishini yuzaga chiqarishga qaratilgan. Dastur 08.00.08—“ Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ushbu dastur 08.00.08 — “ Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit ” ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgorlar uchun mo'ljallangan.

ASOSIY QISM

Buxgalteriya hisobining nazariy asoslari

Hisob tushunchasi, uning turlari va boshqaruvda tutgan o'rni. "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit"ning maxsus iqtisodiy fan va amaliy faoliyat sifatida rivojlanish tarixi, uning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi. Buxgalteriya hisobi predmeti va ob'ektlari: xo'jalik aktivlari va ularni tashkil topish manbalari; soha sub'yektlari xo'jalik faoliyatining tasnifi, tavsifi va moliyaviy natijalari. Buxgalteriya hisobining metodi va unda qo'llaniladigan usullar: balans, schyotlar, schyotlarga ikki yoqlama yozuv, baholash, kalkulyatsiya, hujjatlashtirish, inventarizatsiya, hisobot. Ushbu usullarning uzviy bog'liqligi. Buxgalteriya hisobining me'yoriy-huquqiy ta'minoti. Korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish: hisob ishlarini tashkiliy shakllari, hisob sikli, hisobni jurnal-order, memorial-order, kompyuterlashtirilgan shakllarda yuritish texnologiyalari.

Pul mablag'lari va xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasida hisob-kitoblarning hisobi

Pul mablag'lari va hisob-kitoblarning hisobining vazifalari. Hisob-kitoblarning shakllari - naqd pulga hisob-kitob, to'lov topshiriqnomasi, inkassa topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, cheklar, korporativ va shaxsiy plastik kartochkalar orqali hisob-kitoblarning kassa operatsiyalari hisobi: kassa operatsiyalarining mohiyati va ularni hujjatlashtirish tartibi; kassa xo'jaligini tashkil qilish va pul mablag'lari bo'yicha moddiy javobgarlikni o'rnatish; kassa hisobotini tuzish va unga ishlov berish tartibi; kassadagi pul mablag'larini inventarizatsiya qilish va rasmiylashtirish tartibi; kassa operatsiyalarining hisobi. Banklarda hisob-kitob schyoti va boshqa schyotlardagi pul mablag'larining hisobi: banklarda hisob-kitob schyoti va boshqa schyotlarni ochish tartibi; bank operatsiyalarining mohiyati va ularni hujjatlashtirish tartibi; hisob-kitob schyoti va boshqa schyotlardan ko'chirma va ularga ishlov berish tartibi; hisob-kitob schyoti, valyuta schyoti va boshqa maxsus schyotlardagi pul mablag'larining holati va harakatining hisobi. Pulli ekvivalentlar va yuldagi pul mablag'larining hisobi

Tovar-moddiy zahiralarning hisobi

Materiallarning mohiyati, ahamiyati, tasnifi, tavsifi, ular hisobining vazifalari. Materiallarning qiymatini baholash usullari. Ombor xo'jaligi va moddiy javobgarlikni tashkil qilish shakllari. Materiallarning kirimi - sotib olish, ishlab chiqish, bepul olish, ta'sischi tomonidan kiritilishining hisobi. Materiallarning chiqimi - ishlab chiqarishga ishlatilishi, sotilishi, bepul berilishi, ta'sis badali sifatida kiritilishi va boshqalarning hisobi. Materiallarni inventarizatsiya qilish, uning natijalarining hisobi. Tayyor mahsulotlarning hisobini tashkil qilish asoslari.

Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari hisobi. Ishlab chiqilgan tayyor mahsulotlarning tannaxini aniqlash tartibi va usullari. Tannaxni me'yoriy, jarayonli, bo'linmali, buyurtmali, oddiy hisoblash usullari. Haqiqiy tannaxni hisoblash. Tayyor mahsulotlarning kirimi va ularning ombor hisobi. Tayyor mahsulotlarni sotish va xaridorlar bilan hisob-kitoblarning hisobi. Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannaxini aniqlash tartiblari, usullari va hisobi. Tovarlar hisobini tashkil qilish asoslari. Tovarlar hisobining uzluksiz tizimi. Tovarlar hisobining davriy tizimi.

Asosiy vositalarning hisobi

Asosiy vositalar to'g'risida umumiy tushuncha, ularning mohiyati, tasnifi va tavsifi. Asosiy vositalarning baholanishi. Asosiy vositalarning hisobining vazifalari. Asosiy vositalarning kirimining hisobi. Asosiy vositalarning chiqimining hisobi. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash tartibi, usullari, uning hisobi. Asosiy vositalarga keyingi sarflar hisobi. Asosiy vositalarni inventarizatsiya qilish tartibi, uni natijalarining hisobi.

Nomoddiy aktivlarning hisobi

Nomoddiy aktivlar to'g'risida umumiy tushuncha, ularning mohiyati, tasnifi va tavsifi. Nomoddiy aktivlarning baholanishi. Nomoddiy aktivlarning hisobining vazifalari. Nomoddiy aktivlarning kirimining hisobi. Nomoddiy aktivlarning chiqimining hisobi. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash tartibi va usullari, uning hisobi.

Mehnat va unga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarning hisobi

Mehnatga haq to'lashning shakllari va turlari. Mehnat va ish haqini dastlabki hujjatlarda rasmiylashtirish. Ishlab chiqaruvchi xodimlarga asosiy ish haqini hisoblash tartibi. Vaqtlab ishlovchi xodimlarga asosiy ish haqini hisoblash tartibi. Qo'shimcha ish haqini hisoblash tartibi: mehnat ta'tili haqi, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik uchun nafaqa, moddiy yordam va kompensatsiyalar va boshqalar. Hisoblangan ish haqi turlarining hisobi. Ish haqidan ushlanmalar, ularni hisob-kitob qilish tartibi va hisobi. Ish haqini berishning tizimlari va hisobi. Ish haqi bo'yicha berilgan bo'naklarning hisobi. Ish haqini deponentlash va uni berilishining hisobi. Korxonalar tomonida davlatning maqsadli fondlariga to'lanadigan majburiy ajratmalarining hisobi.

Daromadlar, xarajatlar, soliqlar va yakuniy moliyaviy natijalarning hisobi

Korxonalar daromadlarining tasnifi va tavsifi, ular hisobining vazifalari. Xizmatlardan olingan daromadlarning hisobi. Ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarning hisobi. Xizmat ko'rsatish korxonalarining boshqa daromatlari hisobi. Xizmat ko'rsatish sohasi sub'yektlari xarajatlarining tasnifi va tavsifi, ular hisobining vazifalari. Ko'rsatilgan xizmatlarning tannaxi hisobi. Davr xarajatlari hisobi. Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar

hisobi. Korxonalarda umumbelgilangan va ixchamlashtirilgan soliklar hisob-kitobi, ular hisobi. Korxonalarda yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi, ular hisobi.

Xususiy kapital hisobi

Xususiy kapital hisobining vazifalari. Ustav kapitalining hisobi. Qo'shilgan kapitalning hisobi. Rezerv kapitalining hisobi. Maqsadli tushumlarning hisobi. Turli to'lovlar uchun rezervlarning hisobi. Taqsimlanmagan foyda (zarar)ning hisobi.

Majburiyatlar hisobi

Majburiyatlarning tasnifi, tavsifi, ular hisobining vazifalari. Tovar operatsiyalari bo'yicha majburiyatlar hisobi. Bank kreditlari va qarzlar bo'yicha majburiyatlar hisobi. Soliqlar va to'lovlar bo'yicha majburiyatlar hisobi. Ta'sischi oldidagi majburiyatlar hisobi. Turli kreditorlar oldidagi majburiyatlar hisobi.

Moliyaviy hisobot

Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim qilish uchun konseptual asoslar. Buxgalteriya balansini tuzish. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzish. Moliyaviy hisobotga ilovalar va tushuntirish xatlari.

Iqtisodiy tahlilning rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanishi

Iqtisodiy tahlilni fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiy tahlilning ishlab chiqarishning jadallashtirish, hamda xo'jalik hisobini mustahkamlash, iqtisodiy tejamkorlikni amalga oshirishda, hamda korxonalar, konsernlar, birlashmalar va vazirliklarni ish sifatini yaxshilashdagi ahamiyati. Hodisa va jarayonlarni har tomonlama o'zaro bog'liq ravishda o'rganish va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash tahlilning asosiy belgisi. Tahlil (analiz) va umumiylik (sintez) iqtisodiy xodisa va jarayonlarni batafsil o'rganishning asosiy yo'li ekanligini. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari: haqqoniylik va to'g'rilik - tahlilning turli iqtisodiy xodisa va jarayonlarni o'rganishdagi asosiy maqsadi. Ilmiy yondoshish, kompleks va sistemali o'rganishlik, iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari ekanligi.

Iqtisodiy tahlilning predmeti, vazifalari va mazmuni

Korxonalar (birlashmalar) faoliyatining atroflicha va keng o'rganish iqtisodiy tahlilning asosiy mohiyatidir. Hodisa va jarayonlarni o'rganishdan maqsad, natijaviy ko'rsatkichlarni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni, sabab - oqibatlarini va ularning ta'sirini aniqlash.

Iqtisodiy tahlil predmeti. Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy va qo'shimcha omillarni o'rganish va aniqlash. Korxonalar xo'jalik faoliyatini ko'rsatkichlari: texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish, mehnatni tashkil etish, iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish jarayonlarini ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlari, tabiiy sharoitlari, atrof - muhitni muhofaza qilish va hokazolar. Korxonalar, birlashmalar, konsernlar va vazirliklar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish vazifalari. Mahsulot ishlab chiqarish va ularni xaridorlarga yetkazib berish shartnomasini bajarishga korxonalarning imkoniyati yetarliligi, mehnat resurslari, moddiy resurslar va asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanganligini o'rganish, bozor iqtisodiyoti raqobatlariga chidamli moliyaviy barqarorligiga baho berish iqtisodiy tahlilning muhim vazifasi.

Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo'llaniladigan an'anaviy usullar

Iqtisodiy tahlil metodi ta'rifi va uning xususiyatlariga atroflicha sistemali yondoshish, iqtisodiy, sotsial va ekologik muammolarni birgalikda qo'shib o'rganishlik tahlil metodining asosiy tamoyillari. Dialektik yondashish, iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalanib, ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va har birini ta'sir doirasini ko'rsatish - iqtisodiy tahlil uslubiyatining muhim xususiyati. Iqtisodiy tahlilning maxsus usullari va ularni tavsiflash. Solishtirish, muvozanat, qayta hisoblash, zanjirli almashtirish, farqlash, nisbiy miqdorlardan foydalanish, indeks va integral usullari va ularning qo'llanishi. Xo'jalik omillarini turli xususiyatlariga qarab guruhlash usuli. Rezervlarni tavsiflash, ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashda «tor joy» va yetakchi bo'g'inlarni aniqlash. Ko'rsatkichlarni o'rganishda belgilarga ajratish (detallashtirish) va tartiblashtirish usullarini qo'llashning xususiyatlarini.

Iqtisodiy tahlilning turlari, axborot manbalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish

Iqtisodiy tahlil korxonalarning boshqarishning muhim vositasi ekanligi. Tijorat siri va boshqaruv tahlili. Boshqaruv tahlilining mazmuni, vazifalari va manbalari. Moliyaviy tahlil va uning korxonalar faoliyatiga baho berishdagi ahamiyati, mazmuni, tashkil kilinishi, vazifalari va manbalari. Xo'jalik faoliyatining joriy tahlili. Joriy tahlilning mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Korxonalar va birlashmalarning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni joriy tahlil qilishning usullari. Tezkor (operativ) tahlil, uning ahamiyati, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari xamda usullari. Istiqbolli tahlil. Xo'jaliklararo kiyosiy tahlil. Texnik- iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik-iqtisodiy tahlil turlariga tushuncha. Texnik-iqtisodiy va ekologik-iqtisodiy tahlilningi uziga xos xususiyatlari va ularning kompleks iqtisodiy tahlil tizimida tutgan urni. Funksional qiymat tahlili. Funksional qiymat tahlilning ahamiyati, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Funksional

qiymat tahlilning tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari va foydalanishdagi asosiy shartlari. Funktsional qiymat tahlilning tashkil etilishi. Funktsional qiymat tahlilning korxonalarni loyixalashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va qayta uskunalar bosqichlarida o'tkazish xususiyatlari.

Iqtisodiy tahlil uchun kerakli ma'lumotlar tizimi. Iqtisodiy ma'lumotlarning turlari va ularni tashkil qilish tamoyillari: haqqoniylik, umumiy bog'liqlik, tezkorlik, tejamkorlik va keraklilik. Hisob, hisobot va boshqa ma'lumotlar tizimini qo'yilgan talabga javob berishi. Iqtisodiy tahlilda ma'lumotlar manbaini hisob va hisobdan tashqari ma'lumotlarga bo'linishi. Hisob, hisobot va reja ma'lumotlarini yig'ish va bir tizimga qo'yish. Tahliliy jadvallar tuzish tartiblari. Korxonalar qatnashdagi iqtisodiy tahlilni tashkil etish: moliyaviy tahlil va boshqaruv tahlili. Korxonaning moliyaviy natijalari va holati to'g'risida axborotdan foydalanuvchilarning turli toifalari. Boshqaruv tahlilini o'tkazuvchilar. Korxonalar qatnashdagi iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilishni rejalashtirish.

Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish bosqichlari. Korxona xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda korxonaning texnikaviy va iqtisodiy xizmat ko'rsatish bo'limlari bo'yicha vazifalarini o'zaro taqsimlanishi. Tahlil uchun zarur ma'lumotlar to'plash; kerakli ma'lumotlarni hajmini aniqlash, to'plash, ularni to'g'ri va to'liqligini tekshirish, qayta ishlash, tahlilga moslashtirish. Ma'lumotlarni tahlil qilish. Ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash. Iqtisodiy tahlilning natijalarini rasmiylashtirish. Tahlil natijasiga xulosa va yakun tuzish, aniqlangan rezervlardan foydalanish bo'yicha takliflar keltirish. Iqtisodiy tahlil natijalari bo'yicha qaror qabul qilinishi va uning bajarilishini nazorat qilish.

Korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullari

Mahsulot tannarxi haqida tushuncha va uni pasaytirishni ahamiyati. Mahsulot tannarxi tahlilining zaruriyati va vazifalari. Ishlab chiqarish jarayonlari tannarxi tahlili. Ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir qiluvchi omillar tahlili. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash kompleks iqtisodiy tahlil tizimini asosiy sharti. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish rezervlarini turkumlarga ajratish. Mahsulotni (ish, xizmat) ishlab chiqarish va uni sotishni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullarining asoslari. Korxonalarning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlar: yalpi, tovar, sotilgan va sof mahsulot to'g'risida tushuncha hamda ularning mohiyati. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifati, raqobatbardoshligi, assortimenti (xilma-xilligi) va mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining mohiyati hamda ularni sotish hajmiga ta'siri. Mahsulot ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga ta'sir qiluvchi: mehnat, mehnat vositalari va mehnat buyumlari omillarini turkumlash tamoyillari.

Korxona moliyaviy holatining tahlili

Korxonalar moliyaviy xolatini baholashda moliyaviy koeffitsientlar tizimining ahamiyati. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish uslubiyati. Koeffitsiyentlar: mustaqillik, moliyaviy barqarorlik va moliyaviy qaramlik. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi qo'shimcha koeffitsiyentlar. Balans va aktivlar likvidligi to'g'risida tushuncha. Balans likvidligini tahlil qilishning ahamiyati. Likvidlilik darajasi bo'yicha balans aktivini guruhlashtirish. To'lanish muddati darajasi bo'yicha balans passivi moddalarini guruhlashtirish. Korxona to'lov qobiliyatiga umumiy baho berish. To'lovga qobillikni asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish usullari. Balansning ishchanlik faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni tahlili. Debitorlik va kreditorlik qarzlari holatining tahlili. Muddatli o'tgan va muddati yetib kelingan debitorlik va kreditorlik qarzlari holatining tahlili.

Auditning mohiyati, zarurligi va ahamiyati

Auditning paydo bo'lish tarixi. Auditning mohiyati, zarurligi va ahamiyati. Auditning maqsadi va vazifalari. Auditning predmeti va ob'ekti. Auditning uslubi va uning elementlari. Auditorlik tanlovining mohiyati. Auditda muhimlik. Audit tavakkalchiligining mohiyati va turlari. Auditorlik xatari (riski). Auditorlik isboti, uning darajasini aniqlash.

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyati va uni tartibga solish

Auditorlar va auditorlik tashkilotlari. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya va uni olish tartibi. Auditorlik sertifikatini, uni olish tartibi. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyati va uni tartibga solish tizimi. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni va uning mazmuni. Auditning milliy va xalqaro standartlari.

Korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati auditini o'tkazishning metodologik asoslari

Auditni o'tkazish tartibi. Ichki auditni o'tkazish tartibi. Tashqi auditning xususiyatlari. Auditorlik shartnomasi, uni tuzish tartibi. Auditorlik rejasi va dasturi, ularni tuzish tartibi. Auditorlik tekshiruvining strategiyasi. Audit texnologiyasi va uni o'tkazish ketma-ketligi. Korxona aktivlarining auditini. Korxona majburiyatlarining auditini. Xususiy kapital elementlarining auditini. Daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalarning auditini.

Auditorlik tekshiruvini umumlashtirish va rasmiylashtirish

Audit natijalarining umumlashtirilishi. Auditorlik hisoboti va uni tuzish tartibi. Auditorlik xulosasi, uning turlari va tuzilishi. Audit natijalarini tadbiq etish.

Talabgorlarning kirish imtihon natijalarini BAHOLASH MEZONLARI

Imtihon mutaxassislik fanidan o'tkaziladi. Imtihonlar ball tizimida quyidagi "javob tavsifi" asosida baholanadi:

Mutaxassislik fanidan imtihon yozma shaklda o'tkaziladi va quyidagilarga e'tibor beriladi:

- savol bo'yicha aniq tasavvurga ega;
- mazmunan aniq yoritilgan, mohiyati to'liq ochib berilgan, mantiqiy izchil ifodalangan;
- nazariy bilimlarga asoslangan holda to'g'ri javob berilgan;
- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga e'tibor qaratilgan;
- samalari va natijalari bo'yicha mustaqil ijodiy fikr yuritilgan;
- tegishli masalalar bo'yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi e'tiborga olingan;
- fikr mantiqiy ketma-ket bayon etilgan, savol bo'yicha tegishli xulosalar chiqarilgan;
- husnixati chiroyli va o'zbek tilida xatosiz yozilgan.

Imtihon savollari mutaxassislik fanidan har biri 20 ball bilan baholanuvchi 5 ta savoldan, jami 100 ballni tashkil etadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Nashriyot matbaa ijodiyot uyi, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. yangi tahriri 2016 yil 13 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, yangi tahriri 2021 y 25 fevral.
4. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 2014 yil 6 may, O'RQ-370-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 7 fevral, № PF-4947.
6. "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946 2018 yil 19 sentyabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ish,xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risi"da Nizom, 1999 yil 5

fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan (keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

8. "Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ-218, 2019 yil 13 mart.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida"gi Qarori, 2000 yil 22 sentyabr, № 365.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2006 yil 16 noyabr, № 215.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2019-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, Xalq so'zi, 2019-yil 16-yanvar.
12. "Moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik hisoboti" 700-son Audit xalqaro standarti, www.mf.uz.
13. BHMS 1-son "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot", O'zR. AV tomonidan 1998 yil 14 avgustda ro'yxatga olingan, № 474.
14. BHMS 21-son "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma", O'z.R. Adliya Vazirligidan 2002 yil 23-oktyabrda ro'yxatdan o'tgan, № 1181.
15. Abdusalomova N. B., Tyemirov F. T. Moliyaviy hisob Darslik - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2021 yil. 374-bet.
16. Aliqulov A.I.,Qurbonov I, "Fermar xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi", Samarqand - 2009 y.
17. Jo'rayev A va boshqalar, "Soliqlar va soliqqa tortish", O'quv qo'llanma, Toshkent, 2009 y.
18. Libby, Robert. Financial accounting / Robert Libby, Patricia A. Libby, Daniel G. Short. Irwin, Printed in USA, 11th edition, 2022. 877 p.;
19. Karimov A.A. va boshqalar, "Buxgalteriya hisobi", Darslik, Sharq nashri, 2004 y.
20. Musayev H.N., "Audit" Darslik, Moliya nashri, 2003 y.
21. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik.T.: "Fan va texnologiya" - 2018
22. Pardayev M.K., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. 1-kism. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi. 2001.
23. Pardayev M.K., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. 2-kism. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi. 2002.
24. Tashnazarov S.N., "Boshqaruv hisobi", Ma'ruza matnlari, SamISI, 2010.
25. Tashnazarov S.N. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot muammo va yechimlar" Monografiya, "Navruz" nashriyoti Toshkent - 2016 y.

26. Tashnazarov "Xalqaro hisob asoslari" Ma'ruza matnlari to'plami. Samarqand – 2008 y.
27. Urazov K.B., Moliyaviy hisob va hisobot. O'quv qo'llanma. – T.: Innovatsion rivojlanish matbaa uyi, 2020, 408 b.
28. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish matbaa uyi, 2020, 558 b.
29. Urazov K.B., Xudayberdiyev N.U. "Soliqlar va to'lovlar auditing xususiyatlari" Darslik, Samarqand-2012 y.
30. Xolboyev D., Ibragimov U.N., "Moliyaviy hisob", O'quv qo'llanma, Toshkent-2016 y.
31. B.A.Hasanov, A.A.Xashimov. "Boshqaruv hisobi" Darslik, Toshkent – 2013 yil.
32. Pardayev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. "Iqtisodiy tahlil". O'quv qo'llanma.T.: "Print Live Group", - 2017.
33. R.O.Xolbekov. Xalqaro buxgalteriya hisobi –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2021, 138 bet.
34. Ergasheva Shaxlo Turg'unovna " Международные стандарты финансовой отчётности ". Darslik. LAP LAMBERT Academic publishing 2021 yil. 210-bet.
35. Sh.T.Ergashyeva, N.B.Abdusalomova. Boshqaruv hisobi. Darslik.- T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021-244 b.

Internet saytlari:

1. www.mf.uz (O'z. Res. Moliya Vazirligining rasmiy sayti);
2. www.lex.uz (O'z. Res. Milliy qonunchilik bazasi sayti);
3. www.ziynet.uz (O'z. Res. jamoat axorot ta'lim tarmog'i sayti);
4. www.ifrs.org (Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari rasmiy sayti);
5. www.iasplus.com (Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari to'g'risida axborotlar manbai);
6. www.norma.uz ("Norma" gazetasining sayti)